**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG’LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**
**ICHKI KASALLIKLAR PROPEDEVTIKASI KAFEDRASI**

**“TASDIQLAYMAN”**
**ADTI rektori M.M.Madazimov**
______________
**“ 2 ” ________ 2025 yil**

# TIBBIYOT KASBIGA KIRISH
# TERAPEVTIK BEMORLAR PARVARISHI
# O’QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 900 000 – Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot |
| Ta’lim sohasi: | 910 000– Sog‘liqni saqlash |
| Ta’lim yo‘nalishlari: | 60910200 – Davolash ishi |

**Andijon - 2025 yil**

<table>
<tr><td colspan="2">Fan/modul kodi<br>TKK – 1104</td><td>O‘quv yili<br>2025-2026</td><td>Semestr<br>1</td><td colspan="2">Kreditlar<br>2</td></tr>
<tr><td colspan="2">Fan/modul turi<br>Majburiy</td><td colspan="2">Ta’lim tili<br>O‘zbek</td><td colspan="2">Xaftadagi dars soatlari<br>2</td></tr>
<tr><td rowspan="2">1</td><td colspan="2">Fanning nomi</td><td>Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)</td><td>Mustaqil ta’lim (soat)</td><td>Jami yuklama (soat)</td></tr>
<tr><td colspan="2">Tibbiyot kasbiga kirish</td><td>30</td><td>30</td><td>60</td></tr>
</table>

## I. Fanning mazmuni.

***O‘quv modulining dolzarbligi va oliy ta’limdagi o‘rni***

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy maqsadlaridan biri tibbiyotda har tomonlama kamol topgan yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalab etishtirish, uning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishdir. Ichki kasalliklar – keng tarqalgan kasalliklarning etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, klinik kechishi, laboratoriya, asbob-uskunalar, klinik ko`rsatmalar yordamida tashxis qo`yish, qibati, asorati, oldini olish choralari, kechiktirib bo`lmaydigan holatlarda tezkor yordam ko`rsatish, mustaqil ravishda tekshirish o`tkazish, ishga layoqatliligini bilish, davolash asoslarini o`rgatadigan fan bo`lib, umumiy amaliyot shifokori-bakalavr mutaxassisligiga oid tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishda katta ahamiyatga egadir.

Ushbu fan dasturi O`zbekiston Respublikasi Davlat ta’lim standarti va bakalavriat ta’lim yo`nalishi malaka talablariga asoslangan holda tuzilgan. Ushbu dastur asosida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o`qitish jarayonida qo`llagan holda, talabani nazariy ma’lumotidan amaliy ko`nikmalarni bajarishga o`rgatib, orttirilgan ko`nikmalarni zamonaviy tibbiy texnologiyalar orqali klinik amaliyot bilan uyg`unlashtirgan holda qo`llashga imkon yaratadi.

Fanni o`qitish uchun gistologiya, odam anatomiyasi, biologiya fanlari nazariy zamin bo`lib xizmat qiladi. Ichki kasalliklar fani keyinchalik boshqa klinik fanlar uchun nazariy zamin bo`lib xizmat ko`rsatadi.

**Fanning o`qitishdan maqsad** - kattalar salomatligini yaxshilash uchun zarur bo'lgan sifatli tibbiy yordam ko'rsatish bilim va ko'nikmalar(kompetentsiyalar)ni shakllantirish.

**Fanning vazifalari:**

Fanning vazifasi: – kattalarni stasionar davolash tizimida parvarish qilishni o'rgatish;

– davolash muassasalaridagi rejimni o'rgatish;

| | |
|---|---|
| | – deontologiya va etika tamoyillarini singdirish;<br>– stasionarda davolanish davomida kattalarga sanitar ishlov berish qoidalarini o'rgatish;<br>– anropometriya, termometriya usullarini o'rgatish;<br>– eng ko'p tarqalgan kasalliklar bilan davolanayotgan bemorlarni differentsial tarzda parvarish qilishni o'rgatish;<br>– kasallik turi va og'irlik darajasi, bemorning yoshiga qarab ovqatlantirishni o'rgatish;<br>– dori vositalarini qabul qilish usullari va yo'llarini o'rgatish;<br>– bemorlarni tezkor va rejali operasiyalarga tayyorlashni o'rgatish;<br>– jonlantirish bo'limida davolanayotgan va jonlantirish bo'limidan chiqqan bemorlarni parvarish qilishni o'rgatish;<br>– hayot uchun havfli holatlarda (yurakning to'xtashi, nafas olishning buzilishi, qon ketishi, zaharlanish, kuyish, sovuq qotish, aspirasiya) bemorlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatishni o'rgatish;<br>- laborator tekshiruv uchun biologik materiallarni to'plashni o'rgatish;<br>- parvarishning zamonaviy usullari to'g'risidagi ilmiy adabiyotlardan foydalanishni o'rgatish.<br>**II. Asosiy nazariy qism (Amaliy mashg`ulotlari)**<br>**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**<br>**1 – semester**<br>**1.** Klinika faoliyati bilan tanishish. Davolash muassasalari faoliyatini tashkil etish. Bemorlar umumiy parvarishining mohiyati Bemorlarga tibbiy-profilaktik yordam ko'rsatishning zamonaviy tamoyillari. Tibbiy muassalar turlari. Terapevtik bo'limda bemorlar parvarishi axamiyati. Tibbiyotda etika va deontologiya. Tibbiy etika va deontologiya. Muloqot ko‘nikmalari va kichik tibbiy xodimlar vazifalari.<br>Al-Farobi nomli Qozog‘iston Milliy Universitetining bakalavriat ta’lim dasturiga oid namunaviy o‘quv rejasidan foydalanildi.<br>1. Tibbiy muassasa qabul bo'limi. Qabul bo'limi ishini tashkil qilish. Tibbiy jixozlanishi. Bemorni qabul qilish. Bemorning funksional holatini baholash. Bemorlarni saralash. Bemorlarni transportirovka qilish. Gigiena tartib-qoidalarini qo'llash va ularning ahamiyatini bemorlarga tushuntirish, xavfsiz parvarish qilish tamoyillarini qo'llash. |

| | |
|---|---|
| | Bemorlarni transportirovka qilish. Qabul bo'limida sanitar-epidemiologik rejimi.<br>(Lunda Universitetni tibbiyot ta’lim dasturidan foydalanildi.)<br>Al-Farobi nomli Qozog‘iston Milliy Universitetining bakalavriat ta’lim dasturiga oid namunaviy o‘quv rejasidan foydalanildi.<br><br>**3.** Tibbiy muassasa terapevtik bo'limi. Terapevtik bo'lim jixozlanishi va ishini tashkil qilish. Post xamshirasi vazifalari. Terapevtik bo'limda kun tartibi (rejimi). Bemorlarga tashrifni tashkillashtirish. Terapevtik bo'limda sanitar-epidemiologik rejim. Tibbiyot bo'limlarini tuzilishi va parvarishlash jarayonlarini va turli kasbiy toifalarning funktsiyalarini tavsiflashni o‘rganish.<br>(Lunda Universitetni tibbiyot ta’lim dasturidan foydalanildi.)<br>**4.** Tibbiy xujjatlarni yuritilishi. Shifokor tavsiyalari varaqasi, xarorat varaqasi, kasallik tarixidan ko'chirma olish, bemorlar xarakatini qayd qilish jurnali, navbatchilikni qabul qilish va topshirish jurnali, "A" va "B" ro’yxatidagi dori vositalarini xisob kitob qilish jurnali, seyf kalitini kabul qilish va topshirish jurnali.<br>**5.** Termometriya. Termometr, termometrni zararsizlantirish va saqlash. Tana xaroratini o’lchash usullari. Tana xaroratini o’lchash va kayd qilish. Isitma xaqida tushuncha. Isitma turlari. Isitmalayotgan bemorlarni parvarish qilish.<br>**6.** Dori vositalarini qo'llash usullari. Dori vositalari shakllari, turlari. Dori vositalarini tarqatish va saqlash. "A" va "B" ro’yxatdagi dori vositalari. Dori vositalarini qo'llash usullari, qo'llashda yuzaga keladigan asoratlarini oldini olish.<br>**7.** Stasionar sharoitlarda bemorlarni ovqatlantirishni tashkil qilish. Shifobaxsh ovqatlantirish to'g'risida tushuncha. Bo'lim oshxonasi jixozlanishi va idishlarni zararsizlantirish. Menyu tuzish, parxez stollariga talabnoma to'ldirish, bo'limda ovqatlarni tarqatish.<br>**8.** Parxez stollari. Bemorlarni ovqatlantirish usullari. Keksa yoshdagi va og'ir axvoldagi bemorlarni ovqatlantirish.<br>**9.** Fizioterepevtik muolajalar. Fizioterapevtik muolajalar davomida bemorlarni nazorat qilish va kuzatish. Muolajalarda asoratlar kuzatilganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish.<br>**10.** Nafas olish tizimi kasalliklarida bemorlarni kuzatish va parvarish qilish. Nafas a'zolari kasalliklarida asosiy klinik simptomlari. Nafas olish sonini sanash va qayd qilish. Bemorlarga yotoq joyida qulay sharoitni ta'minlash. Bemorlar umumiy parvarishi.<br>**11.** Nafas olish tizimi kasalliklarida bemorlarni kuzatish va parvarish qilish. Cho'ntak ingalyatorlaridan foydalanish. Tekshiruvlar uchun balg'am yig'ish. Tufdonlarni dezinfektsiya qilish.<br>**12.** Yurak qon - tomir tizimi kasalliklarida bemorlarni parvarish qilish va |

| | |
|---|---|
| | kuzatuvi. Kasalliklarning asosiy simptomlari xaqida tushuncha. Arterial qon bosimini o'lchash. Pulsni sanash va uni qayd qilish. (M.V. Lomonosov nomidagi Moskva Davlat Universiteti bakalavriat ta’lim dasturidan foydalanildi)<br>**13.** Ovqat hazm qilish tizimi kasalliklarida turli yoshdagi og‘ir bemorlarni oziqlantirish bemorlar parvarishi va kuzatuvi. Kasalliklarning asosiy simptomlari xaqida tushuncha. Laborator tashxislash uchun biologik materiallarni yig'ish, saqlash va transportirovka qilish qoidalari (qon, peshob, axlat, balg'am va boshqalar). Bemorlarni ultratovush, endoskopik, rentgenologik tekshiruvlarga tayyorlash qoidalari va tartibi.<br>Al-Farobi nomli Qozog‘iston Milliy Universitetining bakalavriat ta’lim dasturiga oid namunaviy o‘quv rejasidan foydalanildi.<br><br>**14.** Siydik ajratish tizimi kasalliklarida bemorlar parvarishi va kuzatuvi. Kasalliklarda asosiy simptomlar xaqida tushuncha. O‘tkir va surunkali glomerulonefrit siydik ajratish tizimi kasalliklarida bemorlar parvarishi va kuzatuvi. Siydik ajralishi. Siydik ajralishi tezligi va regulyarligini kuzatuvi. Laborator taxlillar uchun siydiq yig'ish tartibi. O'tkir siydik tutilishi. Kateterizasiya.<br>O‘zbekıston Respublıkası Sog‘lıqnı saqlash vazırligining 29-apreldagi № 116-buyrug‘iga asosan glomerulopatiyasini diagnostika qilish va davolash bo‘yicha milliy klinik protokolidan foydalanilgan.<br>15. Xayot uchun xavfli xolatlarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish va asoratlarini oldini olish. Birinchi yordamning tashkiliy va huquqiy jihatlari. Favqulodda holatlar tasnifi. Xayot uchun xavf tug'diruvchi xolatlarni belgilarini bilish va tez tibbiy yordam ko'rsatish.<br>Shubha tug'ilgan hollarda tez yordam ko‘rsatishni hal qilish tamoyillarini bemorlarga tushuntiring va ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamga murojaat qilish tamoyillarini tushuntirish.<br>(Lunda Universitetni tibbiyot ta’lim dasturidan foydalanildi.)<br>Al-Farobi nomli Qozog‘iston Milliy Universitetining bakalavriat ta’lim dasturiga oid namunaviy o‘quv rejasidan foydalanildi. |
| **3** | **Amaliy ko'nikmalar ro'yxati (modulni yakunlaganda talaba bajara oladi):**<br>1. Birlamchi tibbiy muolajalarni bajarish (termometriya, antropometriya, nafas olish soni, yurak urish sonini aniqlash, arterial qon bosimini o'lchash);<br>2. Joriy va yakuniy dezinfektsiya o'tkazish;<br>3. Dori vositalarini yuborish yo'llari va davo muolajalarini o'tkazish;<br>4. Og'ir yotgan bemorga tuvak (sudna) tutish texnikasi;<br>5. Hayot uchun xafvli holatlarda birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish;<br>6. Nafas va yurak to'xtaganda shoshilinch birinchi yordam (sun'iy nafas berish, |

yurakni bilvosita uqalash) berish.
7. Og'ir yotgan turli yoshdagi bemorlarning choyshabini, kiyimini (kuylagini) almashtirish texnikasi;
8. Og'ir yotgan bemor quloqlariga, burniga, sochlariga va og'iz bo'shlig'iga gigienik ishlov berish va taxorat qilish (oraliq soxasini yuvish) texnikasi;
9. Og'ir yotgan bemorlarda yotoq yaralar profilaktikasini o'tkazish;
10. Turliyoshdagibemorlarniovqatlantirish;
11. Bemorlarni transportirovka qilish;

Amaliy mashg‘ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o‘qituvchi tomonidan o‘tkaziladi. Amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- Amaliy mashg‘ulotlarni maqsadini aniq belgilab olish;
- O‘qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo‘yicha bilimlarnichuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg‘otish;
- Talabada natijani mustaqil ravishda qo‘lga kiritish imkoniyatinita’minlash;
- Talabani nazariy-metodiq jihatdan tayyorlash va h.k.

**Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar, tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**

**Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzular ro‘yxati:**

| | |
|---|---|
| 1 | Xozirgi zamon tibbiyotida yatrogeniya muammolari. Yatrogeniyaning ahamiyati, dolzarbligi, xozirgi zamonning "agressiv" tibbiyot bilan bog'liqligi. |
| 2 | Evtanaziya muammolari. |
| 3 | Беморлар bilan verbal muloqot ko'nikmalari. Pasient bilan noverbal, verbal muloqot, ahamiyati, turlari (vaziyat, jest, ovoz, intonasiya, ritm, mimika) ko'nikmalari. |
| 4 | Maslaxat turlari, qoidalari, maslaxat berish ko'nikmalari, asosiy printsip va koidalari. Kommunikasion to'siqlar. |
| 5 | Bemorlarning ruhiy holati "depressiya, shok, qo'rquv, cho'chish, ipoxondriya, o'zini aybdor xis qilish", suyisidal fikrlash va x.k. |
| 6 | Krizis xolatda bo'lgan bemorga maslahat berish. Yo'qotish, bemor xolatini o'ziga xosligi. |
| 7 | Og'ir va o'layotgan bemorlar bilan muloqotning o'ziga xosligi |
| 8 | Keksa bemor. Keksa organizmning fiziologik xususiyatlari |
| 9 | Xayot uchun xavfli xolatlarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish |

| | |
|---|---|
| 10 | Siydik ajratish tizimi kasalliklarida bemorlar parvarishi va kuzatuvi. |
| 11 | Yurak qon - tomir tizimi kasalliklari asosiy simptomlari xaqida tushuncha. |
| 12 | Nafas olish tizimi kasalliklari.<br>Cho'ntak ingalyatorlaridan foydalanish. Tekshiruvlar uchun balg'am yig'ish. Tufdonlarni dezinfektsiya qilish. |
| 13 | Yotoq yaralarni oldini olish; Og'ir axvoldagi bemorlar parvarishi. |
| | ***Jami*** |

***V. Ta`lim natijalari/kasbiy kompotensiyalari.***

Talaba semestr yakunida:

O‘quv amaliyotini o‘tish davrida talabalar quyidagi amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishlari ko‘zda tutilgan:

1. Bemorlarning transportirovkasini bajara olish.
2. Faollik tartibi. Turli kasalliklarda bemorlarning yotoqdagi vaziyatini baxolash.
3. O'rin to'shaklarni tayyorlash. Bemorlarning kiyimi va choyshablarni almashtira olish.
4. Buyrak kasalliklari bilan kasallangan bemorlarning parvarish xususiyati bilish.
5. Siydik tutilishida bemorlarning nazorati va parvarishi.
6. Siydik tutolmaslikda bemorlarning nazorati va parvarishi.
7. Buyrak va siydik yo'llari kasalliklari bilan kasallangan bemorlarni instrumental tekshiruvlarga tayyorlash.
8. Teri parvarishi, yotoq yaralar profilaktikasi va davolash.
9. Og'iz bo'shlig'i, ko'zlar va sochlar parvarishi.
10. Ko'z, burun va quloq tomchilarini tomizish.
11. Bemor bo'yi va vaznini o'lchash.
12. Ko'krak qafasi aylanasini aniqlash.
13. Nafas harakati sonini sanash.
14. Bemorlarning kreslo-katalkada, zambilda va qo'lda transportirovkasi
15. Og'iz bo'shlig'i, burun, quloq parvarishi.
16. Tana haroratini o'lchash va harorat varaqasiga olingan ma'lumotlarni qayd

| | |
|---|---|
| | qilish.<br>17. Laborator tekshiruv uchun balg'am yig'ish.<br>18. Turli usullarda oksigenoterapiya o'tkazish.<br>19. Cho'ntak ingalyatorlaridan foydalanish ko'nikmasi.<br>20. Arterial qon bosimini o'lchash.<br>21. Bakterialogik tekshiruv uchun tomoq va burundan surtma olish.<br>22. Laborator tekshiruv uchun peshob yig'ish.<br>23. Zimniskiy bo'yicha sinama o'tkazish.<br>***Modul davomida egallanadigan kompetensiyalar (nomi, kodi) ro'yxati:***<br>UK 1[1]. Abstrakt fikr yuritish, xodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo'lish;<br>UK 2. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati;<br>UK 3. Nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun ijtimoiy va ahloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik;<br>UK 4. O'z-o'zini rivojlantirishga, anglashga, o'qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga tayyorlik;<br>UKK 1[2]. Professional faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun og'zaki va yozma ravishda rus va xorijiy tillarda muloqot qilishga tayyorlik;<br>UKK 2. Tibbiy xujjatlarni yuritishga tayyorgalik;<br>UKK 3. Bemorlarni so'rab-surishtirish, ko'zdan kechirish, bemorlarni ketma-ket ko'rib chiqish usullari asosida salomatlik holatiga to'g'ri baho bera olish;<br>UKK 4. Bemorlarda fizik tekshirish usullaridan palpatsiya, perkussiya, auskultatsiyani to'g'ri o'tkaza bilish va tahlil qilish;<br>UKK 5. Asosiy klinik sindromlarni mustaqil aniqlashni va ulardan foydalana olishni bilish;<br>UKK 6. Tibbiy tekshiruvlar o'tkazishda qo'llaniladigan zamonaviylaborator-instrumental tekshirish usullarini talqin qilishni bilish; |
| **4** | ***VI.Ta`lim texnologiyalari va metodlari.***<br>• ma`ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• tezkor savol-javoblar;<br>• guruxlarda ishlash;<br>• jamoa bo`lib ishlash;<br>• taqdimotlar tayyorlash; |

| | |
|---|---|
| | • dalolatnomalar yozish; |
| 5 | ***VII.Kreditlarni olish uchun talablar.*** |

Ushbu Nizom O`zbekiston Respublikasining "Ta'lim to`g`risida"gi qonuni, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi PQ-4310-sonli "Tibbiyot va farmasevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi qarori, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 27 sentyabrdagi 769-sonli "Tibbiyot kadrlarini tayyorlashni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi qarori, O`zbekiston Respublikasi Sog`liqni saqlash vazirligining 2020 yil 8 sentyabrdagi 236 sonli buyrug`i bilan tsadiqlangan "Tibbiyot va farmasevtika oliy va o`rta maxsus ta'lim muassasalarida kredit-modul o`qitish tizimini joriy etish to`g`risidagi Nizom"lari asosida.

Terapevtik bemorlarni parvarish qilish moduli bo'yicha baholash mezonlari haqidagi ma'lumot modul bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Talabalarning modul bo'yicha o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

joriy nazorat (JN);

yakuniy nazorat (YAN).

Modul bo'yicha talabaning semestr (o'quv yili) davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi va baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi.

| № | ***Baxolash turi*** | ***Maksimal ball*** | ***Kredit soni*** |
|---|---|---|---|
| 1 | Auditoriyadagi o'quv mashg'ulotlarni baxolash (JN) | 100 | 2 |
| 2 | Yakuniy nazorat (YaN) | 100 | - |
| | **JAMI** | 100 | 2 |

Modulga ajratilgan 2 kreditni talaba JN davomida yig'adi.

***JORIY NAZORAT (JN)*** JNda talabaning modul mavzulari bo'yicha bilim, amaliy ko'nikma va kompetensiyalarni egallash darajasini aniqlash va baholab borish ko'zda tutiladi. TKK.Terapevtik bemorlar parvarishi moduli bo'yicha JN og'zaki, o'rgatuvchi-nazorat testlari, tarqatma materiallari bilan ishlash, vaziyatli masalalar, mulyaj va fantomlarda ishlash ma'lumotlarini o'rganish, uyga berilgan vazifalarni tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda

o‘tkaziladi.

Baholashda talabaning bilim darajasi, amaliy mashg‘ulot materiallarini o‘zlashtirishi, nazariy material muhokamasida va ta’limning interaktiv usullarida ishtirokining faollik darajasi, shuningdek, amaliy bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish darajasi, kompetensiyalarni egallash (ya’ni nazariy, analitik va amaliy yondoshuvlar) hisobga olinadi. Talabalar fan bo‘yicha 100 ballik tizimda baxolanadi. JN kafedrada og‘zaki so‘rov (80%) va masofaviy ta’lim platformasida test (20%) shakllarida o‘tkaziladi. Har bir mashg‘ulotda barcha talabalar baholanishi shart va o‘qituvchi tomonidan talabaning JN og‘zaki so‘rov shaklidan olgan bali shu kunni o‘zida platformaga qo‘yiladi.

***Joriy nazorat uchun 2 kredit ajratiladi:***

Talaba xar bir bo‘limdan belgilangan kreditlarni to‘plagandan keyingina yakuniy nazoratga kiritilad. (Sinov fan bo‘lsa bundan mustasno.)

***Modul bo‘yicha talaba reytingi quyidagicha aniqlanadi:***

| **Ball** | **ECTS baho** | **ECTS ning ta’rifi** | | **Baho** | **Ta’rifi** |
|---|---|---|---|---|---|
| 86-100 | A | "a’lo" - a’lo natija, minimal hatoliklar bilan | modul dasturining barcha bo‘limlari bo‘yicha tizimli, to‘la va chuqur bilimga ega bo‘lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi;<br>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o‘z o‘rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to‘g‘ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;<br>muammoli savollarni aniqlashi, o‘z qarashlarini ilmiy-amaliy tilda asoslab bera olishi;<br>modulning tayanch tushunchalarini bilishi va uni qisqa vaqt ichida ilmiy va amaliy masalalarni echishda samarali qo‘llay olishi;<br>nostandart vaziyatlarda muammolarni mustaqil va ijodiy hal qila olish qobiliyatini ko‘rsata olishi; | 5 | a’lo |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | amaliy ko‘nikmalarni mustaqil ravishda to‘liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to‘liq egallashi;<br>amaliy masalalarni qisqa, asoslangan va ratsional ravishda hal etishi;<br>modul dasturida tavsiya etilgan asosiy va qo‘shimcha adabiyotlarni to‘liq va chuqur o‘zlashtirishi;<br>modul bo‘yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo‘nalishlar mohiyatini anglash, ularga tanqidiy baho berish va boshqa modullar ilmiy yutuqlarini qo‘llay olishi;<br>nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo‘lishi, vazifalarni bajarishda yuqori madaniyat darajasiga ega bo‘lishi lozim; | | | |
| | 81-85 | B | "juda yaxshi" - o‘rtadan yuqori natija, ayrim hatoliklar bilan | modul dasturining barcha bo‘limlari bo‘yicha tizimli, to‘la va chuqur bilimga ega bo‘lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi;<br>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o‘z o‘rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to‘g‘ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;<br>o‘z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;<br>modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo‘yish hamda hal qilishda undan | 4 | yaxshi | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | unumli foydalanishi;<br>standard vaziyatlarda muammolarni o‘quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;<br>amaliy ko‘nikmalarni mustaqil ravishda to‘liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to‘liq egallashi;<br>amaliy mashg‘ulotlarda normativ- huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to‘g‘ri (lekin doim ham ratsional emas) qo‘llay olishi, bajarilgan ish natijalarini etarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;<br>modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o‘zlashtirishi;<br>o‘rganilayotgan modul bo‘yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo‘nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;<br>nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo‘lishi, vazifalarni bajarishda juda yaxshi madaniyat darajasiga ega bo‘lishi lozim; | | |
| 71-80 | C | "yaxshi" - o‘rtacha natija, sezilarli hatoliklar bilan | modul dasturining barcha bo‘limlari bo‘yicha tizimli, to‘la va chuqur bilimga ega bo‘lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;<br>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o‘z o‘rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to‘g‘ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;<br>o‘z fikrini isbotlashda yoki | | |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;<br>modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo‘yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;<br>standart vaziyatlarda muammolarni o‘quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;<br>amaliy ko‘nikmalarni mustaqil ravishda bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni egallashi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;<br>amaliy mashg‘ulotlarda normativ- huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to‘g‘ri (lekin doim ham ratsional emas) qo‘llay olishi, bajarilgan ish natijalarini etarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;<br>modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o‘zlashtirishi;<br>o‘rganilayotgan modul bo‘yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo‘nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;<br>nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo‘lishi, vazifalarni bajarishda yaxshi darajaga ega bo‘lishi lozim; | | |
| 60-70 | D | "qoni-qarli" - sust natija, qo‘pol | davlat ta’lim standartlari (talablari) doirasida etarli bilim hajmiga ega bo‘lishi; | 3 | Qoni qarli | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | kamchilik-lar bilan | terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to‘g‘ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim xatolarga yo‘l qo‘yishi;<br>javob berishga yoki ayrim maxsus ko‘nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda, modul bo‘yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;<br>amaliy ko‘nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil ammo hatoliklar bilan to‘liq bajara olishi;<br>kompetensiyalarni mustaqil, ammo hatoliklar bilan egallashi;<br>modulining umumiy tushunchalari bo‘yicha qisman bilimga ega bo‘lishi va uni standart (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo‘llay olishi;<br>pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;<br>o‘qilayotgan modul bo‘yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo‘nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;<br>nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda etarli madaniyat darajasiga ega bo‘lishi lozim; | | |
| 55-59 | E | "o‘rta" - minimal natijaga teng | davlat ta’lim standartlari (talablari) doirasida qoniqarli bilim hajmiga ega bo‘lishi;<br>terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to‘g‘ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘yishi;<br>javob berishga yoki ayrim maxsus ko‘nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda va hatolarga yo‘l qo‘yganda, modul bo‘yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | namoyish etishi; amaliy ko‘nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil emas va hatoliklar bilan to‘liq bajara olishi; kompetensiyalarni mustaqil emas va hatoliklar bilan egallashi; modulining umumiy tushunchalari bo‘yicha qisman bilimga ega bo‘lishi va uni standard (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo‘llay olishi; pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi; o‘qilayotgan modul bo‘yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo‘nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi; nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda etarli madaniyat darajasiga ega bo‘lishi lozim; | | |
| 31-54 | FX | "qoniqar-siz" - minimal darajadagi bilim-larni olish uchun qo‘shimcha mustaqil o‘zlash-tirishi zarur | davlat ta’lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo‘lsa; ilmiy terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy mantiqiy xatolarga yo‘l qo‘ysa; nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo‘lsa; amaliy ko‘nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo‘lmasa, o‘z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to‘g‘rilay olmasa. | 2 | Qoni qarsiz |
| 0-30 | F | "mutloq qoniqarsiz" to‘liq qayta o‘zlash-tirishi lozim | davlat ta’lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo‘lsa; terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy va | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | qo‘pol mantiqiy xatolarga yo‘l qo‘ysa yoki umuman javob bermasa;<br>nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo‘lsa yoki umuman bajarmasa;<br>amaliy ko‘nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo‘lmasa, o‘z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to‘g‘rilay olmasa. | | |

### *YAKUNIY NAZORAT (YAN)*

Talaba YAN nazoratga qadar TMI bo‘yicha bajargan ishini PDF variantini masofaviy ta’lim platformasiga joylashtiradi hamda qog‘oz variantini o‘qituvchisiga topshiradi. Talaba TMI bo‘yicha bajargan ishini YAN kuni ximoya qiladi. YAN modul yakunida kafedrada og‘zaki so‘rov (80%) va masofaviy ta’lim platformasida test (20%) shaklida o‘tkaziladi. Bunda talabalarning kompetensiyalarni, amaliy ko‘nikmalarni egallash darajasi va nazariy bilimlari tekshiriladi.

**6** **Asosiy va qo’shimcha o’quv adabiyotlar hamda axborot manbalari**

Fanga oid o’quv materiallarni tayyorlashda Al-Farobi nomli Qozog‘istonMilliy Universitetining 2024-yilgi bakalavriat ta’lim dasturiga oid namunaviy o‘quv dasturidan va Sillabusdan va Lunda Universitetni 2023-yilgi tibbiyot ta’lim dasturi, M.V. Lomonosov nomidagi Moskva Davlat Universiteti bakalavriat ta’lim dasturi, hamda O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 29-apreldagi № 116- buyrug‘iga asosan milliy klinik protokollaridan foydalanildi va amaliy mash’ulot mavzulariga qo’shimcha sifatida kiritildi.

**Asosiy adabiyotlar**

1. Xalmatova B.T. Karimov M.Sh. – Tibbiyot kasbiga kirish
2. Gadaev A.G. Ichki kasalliklar. Darslik. -Toshkent. Turon Zamin Ziyo nashriyoti. 2018 y.
3. Gadaev A.G., Karimov M.Sh. Ichki kasalliklar propedevtikasi. Darslik. -Toshkent. Muxarrir nashriyoti. 2012 y. Qo‘shimcha adabiyotlar

**Qo’shimcha adabiyotlar**

1. Grebenev A.L. Propedevtika vnutrennix bolezney. Uchebnoe posobie. - Moskva. Meditsina. 2011 g.

2. Ryabov S.I. Vnutrennie bolezni V 2-x t. Sankt-Peterburg.: SpetsLit. 2015g.

3. Murashko V.V. Общий уход за болними. Учебное пособие. – Москва. Медитсина. 1988 g.

4. Гребенев А.Л., Щептулин А.А. Основи общего ухода за болними. – Москва. Медитсина. 1991 g.

5. Bobojonov S.N. Ichki kasalliklar. Darslik. Toshkent. 2008; 2010 y.

6. Гордиенко А.В. Госпиталная терапия. Учебник. Санкт-Петербург.: СпетсЛит. 2016 g.

7. Окороков. А.Н., Диагностика и лечение болезней внутренних органов. Учебное пособие. Москва. 2009 й.

8. Струтинский А.В., Баранов А.П., Ройтберг Г.Е., Гапоненков Ю.П. Основи Семиотики внутренних органов. Учебное пособие. Москва. МЕДпресс- информ. 2013 г.

9. Скотт Стерн, Адам Сайфу, Дайн Олткорн. От симптома к диагнозу. Руководство для врачей (Перевод с английского). Москва. Геотар Медиа. 2008г.

10. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizning mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. O’zbekiston matbuot va axborot agentligining “Ozbekiston” nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2017 y.

11. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. O’zbekiston matbuot va axborot agentligining “Ozbekiston” nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2017 y.

12. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O’zbekiston matbuot va axborot agentligining “Ozbekiston” nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2016 y.

13. Al-Farobi nomli Qozog‘iston Milliy Universitetining 2024-yilgi bakalavriat ta’lim dasturiga oid namunaviy o‘quv rejasi.

14. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 29-apreldagi № 116- buyrug‘iga asosan milliy klinik protokollari.

15. Fanga oid o’quv materiallarni tayyorlashda Lunda Universitetni 2023-yilgi tibbiyot ta’lim dasturidan foydalanildi.

16. M.V. Lomonosov nomidagi Moskva Davlat Universiteti bakalavriat ta’lim dasturidan foydalanildi.

**Internet saytlari**

1. Germaniyaning “Lecturio GmbH” meditsina sayti. https://www.lecturio.com/.
2. Al-Farobi nomli Qozogʻiston Milliy Universitetining sayti. www.Kaznu.kz.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligining rasmiy sayti. https://www.ssv.uz
4. https://www.lunduniversity.lu.se/about-university/university-glance Lunda Universitetni sayti
5. http://www.fbm.msu.ru M.V. Lomonosov nomidagi Moskva Davlat Universiteti sayti.
6. www.ziyonet.uz
7. http://pubmed.com Xalqaro tibbiyot adabiyotlar sayti.
8. http://emedicine.com Xalqaro tibbiyot adabiyotlar sayti.
9. http://medscape.com Xalqaro tibbiyot adabiyotlar sayti.
10. http://elibrary.ru Xalqaro elektron tibbiyot adabiyotlar sayti.
11. http://uptodate.com Rossiya tibbiyot adabiyotlar sayti.
12. http://ecicm.org Xalqaro tibbiyot munozara sayti.
13. http://cochrein.com Koxreyn markaziy kutubxonasi.

**Kafedrada yaratilgan o’quv qo’llanma, elektron darslik va monografiyalar:**

1.Yurak ishemik kasalligida zamonaviy tashxislash va yordam koʻrsatish masalalari R.N. Yuldashev Monografiya, Andijon, 2023 y

2.Yurak qon-tomir tizimi kasalliklarini tashxislashning zamonaviy algoritmi: yutuqlar va istiqbollar Kasimova N.J, Primkulova G.N, Yunusova Z. V. Monografiya, Andijon, 2023 y

3. Virusli jigar serrozida kardiogemodinamik buzilishlarni prognozlash, davo va profilaktika oilaviy shifokor amaliyotida Jurayeva M.A., Ravzatov J.B., Ashuraliyeva N.D. Monografiya, Andijon,2024 y

4. Методы исследования сердечнососудистой системы. Kityan S.A., Kasimova

5. ”Современные аспекты диагностики, лечения и профилактики ишемической болезни сердса”. Kasimova N.D., Artikova S.G., Yunusova Z.V., Monografiya, Andijan, 2021 g

6. U.X.Musashayxov, D.A. Xamidov, O.M. Maxsudov, Sh.M. Musashayxova, R.N. Yuldashev. “Семиотика, синдромология и клиническая диагностика болезней сердца”. Oʻquv qoʻllanma Andijon, 2021 y.

7.Sh.M. Musashayxova, U.X. Musashayxov, U.I. Usmanova, D.A. Xamidov. “Профилактика и укрепление здоровуа населениуа с заболеваниуами пищеварителной системы”. Oʻquv qoʻllanma Andijon, 2021 y

8.U.X. Musashayxov, X.T. Musashayxov, O.M. Maxsudov. Prevention and health of the population with diseases of the degistive system. Oʻquv qoʻllanma

| | |
|---|---|
| | Andijon, 2022 y<br>9. U.X.Musashayxov, Sh.M. Musashayxova, O.M. Maxsudov. Гипертонисhескауа болезн. O‘quv qo‘llanma Andijon, 2023 y.<br>10. Sh.M. Musashayxova, U.X. Musashayxov, O.M. Maxsudov. “Методы обследования болных с заболеваниями желудочно-кишечного тракта”.<br>O‘quv qo‘llanma Andijon, 2023 y.<br>11. U.X.Musashayxov, X.T. Musashayxov. “Рол генов-детерминантов фолатногоцикла и тромбоцитарного звена гемостаза в патогенезе сосудистых тромбозов различных локализатсий”. Monografiya-2023y.<br>12. X.T.Musashayxov, F.D. Ikramova, U.X. Musashayxov. Bemorlarni umumiy parvarishi. O‘quv qo‘llanma-2023y.<br>13. U.X.Musashayxov, O.M. Maxsudov. Gipertoniya kasalligi. O‘quv qo‘llanma-2024y.<br>14. Yurak qon-tomir tizimi kasalliklari amaliy kardialogiyaning muammosi sifatida R.N. Yuldashev. O‘quv qo‘llanma. Andijon, 2023 y<br>15.” Terapevtik bemorlarni obyektiv tekshirish usullari”A.S. Salaxidinov, J.B. Ravzatov. O‘quv qo‘llanma. Andijon, 2024 y<br>16. “Nafas tizimi a’zolarini tekshirish usullari va uni o‘qitishda yangi o‘quv texnologiyalaridan foydalanish.” A.S. Salaxidinov, J.B. Ravzatov. O‘quv qo‘llanma. Andijon, 2024 y<br>17. Ichki kasalliklarda bemorlarni subyektiv, labarator va asbob uskunalar yordamida tekshirish usullari. A.S. Salaxidinov, J.B. Ravzatov. O‘quv qo‘llanma. Andijon, 2025yil |
| **7** | Andijon davlat tibbiyot instituti ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasi tomonidan ishlab chiqilgan va Markaziy uslubiy kengashining 2025 yil "__27__" _8___ dagi _1_ - son qarori bilan tasdiqlangan. |
| **8** | **Fan/modul uchun mas`ullar:**<br>U.X. Musashayxov — Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasi mudiri<br>J.B. Ravzatov — Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasi dotsenti Kafedra o’quv ishlari bo’yich ma’sul |
| **9** | **Taqrizchilar:**<br>O.S. Salaxiddinov — Ichki kasalliklar propedevrikasi kafedrasi professori<br>Z.S. Salohiddinov — OSHT kafedra mudiri professor |